

Qualcomm dasturiy ta'minoti va ilovalari haqida batafsil bilib oling

Qualcomm Incorporated kompaniyasining filiallari mobil qurilmalarning samaradorligini oshirish, batareya quvvatini tejash va qurilma xavfsizligini yaxshilashga yordam berish uchun ko'p turdagi dasturiy ta'minotlar va ilovalar taklif qiladi. Bu dasturiy ta'minot ilovalari quyidagilardir:

Qualcomm joylashuv ma'lumotlari (Qualcomm Location)

Qualcomm Location (sobiq "IZat") – AQSHda Qualcomm Technologies, Inc. kompaniyasi tomonidan, Yevropa iqtisodiy hududi mamlakatlarida QT Technologies Ireland Limited kompaniyasi tomonidan va Koreya Respublikasida (Janubiy Koreyada) Qualcomm CDMA Technologies (Korea) YH kompaniyasi tomonidan taqdim qilinadigan texnologiyadir. Qualcomm Location xizmati qurilmangizdagi GPS signali kuchli bo'lmagan taqdirda ham, uning joylashuvini tez va to'g'ri aniqlashga imkon berishi mumkin. Shuningdek, Qualcomm Location xizmati siz qurilmangizda joylashuv ma'lumotlarini talab qiluvchi ilova yoki xizmatlardan foydalanayotganingizda qurilmangizga batareya quvvatini tejashga yordam berberishi mumkin. Joylashuvga asoslangan ilovalardan foydalanganingizda, qurilmangiz ushbu ilova provayderlariga o'zining joylashuv ma'lumotlarini yuborishi mumkin. Ilova provayderlariga taqdim qilinadigan joylashuv ma'lumotlari ularning shartlari va maxfiylik siyosati orqali boshqariladi. Biz sizga o'sha ilova provayderlarining shartlari va maxfiylik siyosatlari bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.

Qualcomm Location yaqin atrofdagi mobil aloqa minoralari va Wi-Fi ulanish nuqtalariga oid ma'lumotlarni vaqt-vaqti bilan qurilmangizga yuklaydi. Qurilmangizga o'z joylashuvini aniqlash va batareya quvvatini tejashga yordam berish uchun bu ma'lumotlar qurilmangizdagi giroskop yoki akselerometr kabi sensorlardan olingan ma'lumotlari bilan umumlashtirilishi mumkin.

Qualcomm Location vaqt-vaqti bilan bizga unikal dasturiy ta'minot ID raqamlari, qurilmangiz joylashuvi ma'lumotlari (geografik uzunlik, kenglik, balandlik va uning noaniqligi), yaqin atrofdagi mobil aloqa minoralari va Wi-Fi ulanish nuqtalari, signal kuchi va vaqti (birgalikda, "Joylashuv ma'lumotlari") kabi axborotni yuboradi. Har qanday internet aloqasida bo'lgani singari, biz qurilmangiz foydalanadigan IP-manzilni ham olamiz. Tizimlarimizni himoya qilish, baholash va uning unumdorligini takomillashtirishga yordam berish uchun Joylashuv ma'lumotlari, dasturiy ta'minot ID raqamlari, IP-manzillarini va boshqa to'planadigan ma'lumotlardan foydalanamiz.

Qualcomm Location xizmati biz to'playdigan ma'lumotlarni himoya qilish uchun turli oqilona va tegishli xavfsizlik choralarini ko'radi. Shu bilan birga, biz dasturiy ta'minotingiz ID raqami yoki IP-manzilini o'z ichiga olgan Joylashuv ma'lumotlarini doimiy ravishda saqlamaymiz va Qualcomm Location foydalanuvchilarining shaxsini aniqlashga harakat qilmaymiz. Tizimning samaradorligini oshirish maqsadida sizning Joylashuv ma'lumotlaringizga oid bo'lgan dasturiy ta'minot ID raqami va IP-manzil axboroti olingan kundan boshlab o'ttiz kun davomida saqlanadi va keyin

ular butunlay o'chirib tashlanadi. IP-manzillari va dasturiy ta'minot ID raqamlari o'chirib tashlagandan so'ng, biz mobil aloqa minoralarining va Wi-Fi ulanish nuqtalarining joylashuviga oid anonim ma'lumotlar bazasini yaratish uchun Joylashuv ma'lumotlarini umumlashtiramiz.

Agar Siz Koreya Respublikasida bo'lsangiz, Qualcomm Location xizmati Joylashuv ma'lumotlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunga ("Qonun") muvofiq ishlaydi va siz mazkur Qonun bo'yicha tegishli huquqlarga ega bo'lasiz. Bizning Koreyadagi faoliyatimiz haqida har qanday savollar va fikr-mulohazalar uchun quyidagi manzilga murojaat qiling:

Qualcomm CDMA Technologies (Korea) YH
Attention Legal Department
4th, 15th, 16th & 17th Fl.
119, Nonhyeon-dong, Gangnam-gu
Seoul, 135-820
Republic of Korea
Telephone Number: 82-2-3404-1114

Qualcomm Technology Reporting (QTR) -- Diagnostik statistika

QTR AQSHda Qualcomm Technologies, Inc. kompaniyasi tomonidan, Yevropa iqtisodiy hududi mamlakatlarida QT Technologies Ireland Limited kompaniyasi tomonidan taqdim qilinadigan texnologiyadir. QTR quyidagi ma'lumotlarni to'plashi mumkin: (i) qurilmada o'rnatilgan va/yoki ishlayotgan ilovalarning nomlari, (ii) konfiguratsiya ma'lumotlari (masalan, mahsulot, uning model, operatsion tizimi va versiyasi, mikrodestur va uning versiyalari, simsiz aloqa operatori, mamalakat mobil aloqasi kodi va tarmoq kodi, chipset seriya raqami (shaxsingizni identifikatsiya qilmaydigan)) (iii) qurilma unumdorligi va xavfsizligi haqidagi statistik ma'lumotlari (CPU, GPU yoki modem unumdorligi kabi) hamda (iv) shaxsingizni identifikatsiya qilmaydigan, lekin telefon atrofidagi harakat, yo'nalish va atrof-muhit sharoitlarini hisobga oluvchi sensorning ma'lumotlari. Ma'lumotlar shifrlangan WiFi yoki cheklangan hajmda mobil aloqa tarmog'ingiz yordamida yuklanadi.

Biz QTR to'playdigan ma'lumotlarni ushbu Siyosatda keltirilgan maqsadlarda, jumladan, simsiz aloqa unumdorligini takomillashtirish uchun keyingi avlod mobil texnologiyalarni yaratishga yordam berish, batareya quvvatini tejash, xavfsizlik choralari ishlab chiqish va faoliyatimizni yaxshilash uchun foydalanamiz. Shuningdek, biz QTR ma'lumotlarini simsiz aloqa operatorlari yoki qurilma ishlab chiqaruvchilariga ham, ular simsiz qurilmalar, tarmoqlar va xavfsizlikni yaxshilashlariga yordam berish uchun, berishimiz mumkin.

QTR Android sozlamalari menyusida "Qualcomm Technologies Reporting" ("Qualcomm Technologies hisobotlari") sarlavhasi ostida ma'lumotlar to'plashdan voz kechishni taklif qiladi. Obunani bekor qilish qurilmangiz unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Bir necha eslatmalar: Har qanday internet aloqasida bo'lgani singari, biz ham qurilmangiz ishlatadigan IP-manzilni olamiz, biroq uni olishimiz bilan o'chirib tashlaymiz. Afar QTR bizga

ushbu maxfiylik siyosatida ko'rsatilmagan shaxsiy ma'lumot hisoblanuvchi har qanday axborotni jo'natsa, biz bunday ma'lumotni darhol o'chirib tashlaymiz. QTR xizmatining ayrim versiyalarida qurilmaning xalqaro mobil jihozlar identifikatori (IMEI) raqamini to'plash imkoniyati ham bor, ammo bu imkoniyat hozircha qo'llanilgani yo'q. Agar kelgusida biz IMEI raqamini to'playdigan bo'lsak, bu oshkor qilingan tarzda, zaruriy maqsadlar uchun va barcha tegishli ma'lumotlarni muhofaza qilish hamda maxfiylik qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi. Nihoyat, QTR xizmatining ayrim versiyalarida siz bizga qurilmaning joylashuv ma'lumotlarini jo'natishga obuna bo'lish imkonini beruvchi funksiyasi ham bor. Agar siz bizga joylashuv ma'lumotlarini jo'natishga obuna bo'lsangiz, bizga yordam berishingiz, masalan, simsiz aloqa signali qamrovi past bo'lgan hududlarni aniqlash uchun qurilmangiz joylashuv ma'lumotlarini vaqti-vaqti bilan to'plashimiz mumkin.

Snapdragon Smart Protect

Qualcomm® Snapdragon™ Smart Protect ("Smart Protect") Android qurilmalar uchun xavfsizlik bo'yicha dasturiy ta'minot xizmati bo'lib, u Yevropa iqtisodiy hududi mamlakatlarida QT Technologies Ireland Limited kompaniyasi tomonidan va AQSHda Qualcomm Technologies, Inc. kompaniyasi tomonidan taqdim qilinadi. Smart Protect o'zi o'rnatilgan qurilmadagi Android ilovalarining xatti-harakatini kuzatib boradi va potensial zararli, josus, reklama dasturlari va qo'rqitish bilan to'lov talab qilishi mumkin bo'lgan dasturiy ta'minotlarni aniqlash uchun mashina tadqiqotlaridan foydalanadi. Smart Protect bu kabi xatti-harakatlarni mijozlarimizning ayni qurilmada o'rnatgan tashqi xavfsizlik ilovalariga xabar beradi.

Smart Protect va ushbu Maxfiylik siyosatida keltirilgan boshqa xizmatlarni takomillashtirishga yordam berish uchun, Smart Protect bizga potensial zararli dasturlar haqida qisqacha ma'lumot yo'llaydi va unda ilovaning nomi, uning signalga sabab bo'lgan faoliyati, qurilma haqida asosiy ma'lumotlar, jumladan, mahsulot, uning modeli va operatsion tizimi versiyasi hamda til sozlamasi, operator va mamlakat kodi kabi qurilma konfiguratsiyasi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Vellamo

Vellamo Android qurilmalar uchun solishtirma sinovlarni o'tkazishga mo'ljallangan dasturiy ta'minot bo'lib ("Vellamo"), u sizga Qualcomm Innovation Center, Inc kompaniyasi tomonidan taqdim etiladi. Vellamo o'zi o'rnatgan qurilmaning tizim unumdorligini tahlil qiladi va bu haqda hisobot beradi. Shuningdek, siz qurilmangizning unumdorligini biz sinovdan o'tkazgan boshqa qurilmalar bilan taqqoslash funksiyasini tanlashingiz ham mumkin va bunday qilish bilan qurilmangiz bizga bu sinov natijalari hamda tizim haqidagi ma'lumotlarni jo'natishi mumkin. Tizim haqidagi bunday ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: qurilma ishlab chiqaruvchining nomi, qurilma modeli va versiyasi; protsessor, xotira va mavjud sensorlar kabi qurilmangiz qismlari haqida ma'lumot; operatsion tizimning turi va versiyasi; displey axboroti; Internet protokoli manzili, brauzer foydalanuvchisi agenti va qurilma ulangan mobil tarmoq haqidagi ma'lumot. Biz o'zimiz to'playdigan ma'lumotlardan ushbu Siyosatda keltirilgan

maqsadlar, jumladan, siz so'rov yuborgan solishtirma sinovlarni o'tkazishga mo'ljallangan xizmatning unumdorligini ta'minlash va mobil qurilmaning unumdorligi bo'yicha haqiqiy statistikani tuzish uchun foydalanamiz.

XTRA – Predicted GNSS Satellite Orbit Data

XTRA AQSHda Qualcomm Technologies, Inc. kompaniyasi tomonidan, Yevropa iqtisodiy hududi mamlakatlarida QT Technologies Ireland Limited kompaniyasi tomonidan taqdim qilinadigan, mobil qurilma unumdorligini takomillashtirishga mo'ljallangan texnologiyadir. XTRA texnologiyasi Qualcomm kompaniyasidan Global Navigation Satellite System (Global navigatsiya sun'iy yo'ldoshi tizimi) (GNSS) sun'iy yo'ldoshlarining bashorat qilingan orbitalari bo'yicha i ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar faylini yuklab oladi. XTRA ma'lumotlar faylidani foydalanish qurilma o'z joylashuvini aniqlash uchun ketadigan vaqtni kamaytiradi, shuning uchun joylashuv ma'lumotlariga asoslangan ilovalardan foydalanilganda vaqt va batareya quvvati tejaladi. XTRA dasturiy ta'minotining yangiroq versiyalari ham bizga kam hajmdagi ma'lumotlarni yuklaydi. Bu yuklangan ma'lumotlardan mazkur xizmatning sifati, xavfsizligi va yaxlitligini ta'minlash kabi ushbu Siyosatda ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanamiz. XTRA quyidagi ma'lumot turlarini yuklaydi: tasodifiy yaratilgan unikal ID raqami, chipset nomi va seriya raqami, XTRA dasturiy ta'minoti versiyasi, mamlakat mobil aloqa kodi va tarmoq kodi (u mamlakat va simsiz aloqa operatorini aniqlash imkonini beradi), operatsion tizimning turi va versiyasi, qurilma rusumi va uning modeli, ilova protsessori va modemning oxirgi marta yuklanganidan keyin o'tgan vaqtni va qurilmadagi dasturiy ta'minotlarimizning ro'yxati.